# NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## (2020- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita oʻz ta'sirini oʻtkazadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 991,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 64,1 % ni tashkil etdi.




*Maʻlumot uchun: Navoiy viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika koʻrsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying oʻrinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi oʻrinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu oʻz navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST boʻyicha kodlashtirish, TIF TN va XSST oʻrtasida oʻtish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

NAVOIY VILOYAT BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BOʻLGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

TSA da eksport hajmi 362,0 mln. AQSh dollariga (2019- yilning mos davriga nisbatan 121,4 % ni) va import hajmi 629,6 mln. AQSh dollariga (2019- yilning mos davriga nisbatan 50,4 % ni) tashkil qilmoqda. Hisobot davrida - 267,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 165,8 | 53,8 | 112,0 | 16,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 140,9 | 28,5 | 112,4 | 14,2 |
| Kanada | 102,6 | 101,1 | 1,5 | 10,3 |
| Fransiya | 79,9 | 76,1 | 3,8 | 8,1 |
| Litva | 78,7 | 3,3 | 75,4 | 7,9 |
| Turkiya | 55,3 | 25,3 | 30,0 | 5,6 |
| Qozogʻiston | 53,0 | 6,3 | 46,7 | 5,3 |
| Germaniya | 48,4 | 0,2 | 48,2 | 4,9 |
| AQSh | 46,3 | 0,1 | 46,2 | 4,7 |
| Koreya Respublikasi | 45,6 | 0,1 | 45,5 | 4,6 |

Soʻnggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qoʻllab-quvvatlash, import oʻrnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishga erishildi.

Navoiy viloyati, jahonning 66 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (16,7 %), Rossiya Federatsiyasida (14,2 %), Kanada (10,3 %), Fransiyada (8,1 %), Litvada (7,9 %), Turkiyada (5,6 %) va Qozogʻistonda (5,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, qo‘shni davlatlar Qozog‘iston Respublikasi bilan TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Fransiya, Litva, Turkiya va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

| | Jami mln. AQSh dollar | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | **991,6** | **64,1** | **100,0** |
| MDH davlatlari | 262,2 | 79,9 | 26,4 |
| Boshqa davlatlar | 729,4 | 59,8 | 73,6 |

**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO‘YICHA TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Tuman va shahar nomi | Tashqi savdo aylanmasi hajmi | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **991 650,7** | **64,1** |
| Navoiy sh. | 614 739,9 | 89,7 |
| Zarafshon sh. | 47 039,7 | 4,8 b. |
| *tumanlar:* | | |
| Karmana | 200 133,8 | 152,0 |
| Konimex | 4 199,9 | 152,6 |
| Qiziltepa | 37 025,9 | 104,9 |
| Navbahor | 27 365,4 | 121,9 |
| Nurota | 9 120,5 | 77,5 |
| Tomdi | 1 532,7 | 181,9 |
| Uchquduq | 2 854,5 | 102,7 |
| Xatirchi | 14 748,2 | 42,0 |
| Bo‘linmaydigan hajm | 32 890,2 | - |

2020- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 991,6 mln. AQSh dollarini 2019- yilning mos davriga nisbatan 64,1 foizni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to‘rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (99,6 mln. AQSh dollari), Fransiya (72,3 mln. AQSh dollari), Qirg‘iz Respublikasi (36,0 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (14,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar- oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **326,7** | **249,7** | **165,8** |
| Eksport | 46,5 | 62,0 | 53,8 |
| Import | 280,2 | 187,7 | 112,0 |
| Saldo | -233,7 | -125,7 | -58,2 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **127,3** | **156,2** | **140,9** |
| Eksport | 26,4 | 30,8 | 28,5 |
| Import | 100,9 | 125,4 | 112,4 |
| Saldo | -74,5 | -94,6 | -83,9 |
| **Kanada** | **0,3** | **0,6** | **102,6** |
| Eksport | 0,2 | 0,5 | 101,1 |
| Import | 0,1 | 0,1 | 1,5 |
| Saldo | 0,1 | 0,4 | 99,6 |
| **Fransiya** | **130,5** | **136,1** | **79,9** |
| Eksport | 128,3 | 134,5 | 76,1 |
| Import | 2,2 | 1,6 | 3,8 |
| Saldo | 126,1 | 132,9 | 72,3 |
| **Litva** | **15,2** | **11,5** | **78,7** |
| Eksport | 1,9 | 3,7 | 3,3 |
| Import | 13,3 | 7,8 | 75,4 |
| Saldo | -11,4 | -4,1 | -72,1 |
| **Turkiya** | **89,0** | **92,2** | **55,3** |
| Eksport | 7,1 | 16,3 | 25,3 |
| Import | 81,9 | 75,9 | 30,0 |
| Saldo | -74,8 | -59,6 | -4,7 |
| **Qozog'iston** | **57,2** | **60,6** | **53,0** |
| Eksport | 40,4 | 6,7 | 6,3 |
| Import | 16,8 | 53,9 | 46,7 |
| Saldo | 23,6 | -47,2 | -40,4 |

**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar- oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Germaniya** | **39,8** | **169,8** | **48,4** |
| Eksport | 0,5 | 0,6 | 0,2 |
| Import | 39,3 | 169,2 | 48,2 |
| Saldo | -38,8 | -168,6 | -48,0 |
| **AQSh** | **42,5** | **39,5** | **46,3** |
| Eksport | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| Import | 42,4 | 39,4 | 46,2 |
| Saldo | -42,3 | -39,3 | -46,1 |
| **Koreya Respublikasi** | **58,9** | **91,5** | **45,6** |
| Eksport | 0,8 | 0,1 | 0,1 |
| Import | 58,1 | 91,4 | 45,5 |
| Saldo | -57,3 | -91,3 | -45,4 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **8,9** | **17,5** | **36,8** |
| Eksport | 7,9 | 17,2 | 36,4 |
| Import | 1,0 | 0,3 | 0,4 |
| Saldo | 6,9 | 16,9 | 36,0 |
| **Yaponiya** | **117,7** | **146,9** | **28,5** |
| Eksport | 0,2 | 7,1 | 0,2 |
| Import | 117,5 | 139,8 | 28,3 |
| Saldo | -117,3 | -132,7 | -28,1 |
| **Turkmaniston** | **5,2** | **11,2** | **15,7** |
| Eksport | 3,0 | 3,0 | 15,1 |
| Import | 2,2 | 8,2 | 0,6 |
| Saldo | 0,8 | -5,2 | 14,5 |
| **Ukraina** | **7,9** | **3,0** | **13,1** |
| Eksport | 1,4 | 1,5 | 1,9 |
| Import | 6,5 | 1,5 | 11,2 |
| Saldo | -5,1 | 0,0 | -9,3 |

**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Italiya** | **8,5** | **88,1** | **10,7** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 8,5 | 88,1 | 10,7 |
| Saldo | -8,5 | -88,1 | -10,7 |
| **Chexiya Respublikasi** | **5,9** | **22,4** | **8,8** |
| Eksport | - | 1,5 | 0,1 |
| Import | 5,9 | 20,9 | 8,7 |
| Saldo | -5,9 | -19,4 | -8,6 |
| **Estoniya** | **1,4** | **7,9** | **7,0** |
| Eksport | - | 0,5 | - |
| Import | 1,4 | 7,4 | 7,0 |
| Saldo | -1,4 | -6,9 | -7,0 |
| **Singapur** | **1,8** | **1,7** | **5,0** |
| Eksport | 0,5 | 0,6 | 4,8 |
| Import | 1,3 | 1,1 | 0,2 |
| Saldo | -0,8 | -0,5 | 4,6 |
| **Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya** | **5,0** | **6,4** | **4,6** |
| Eksport | - | - | 0,6 |
| Import | 5,0 | 6,4 | 4,0 |
| Saldo | -5,0 | -6,4 | -3,4 |
| **Vengriya** | **0,6** | **0,2** | **4,3** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,6 | 0,2 | 4,3 |
| Saldo | -0,6 | -0,2 | -4,3 |

**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-oktabr oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan 59,8 % ni, jami TSA dagi ulushi 73,6 % ni tashkil etdi.

# NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 362,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,4 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (68,7 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (13,8 %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar (7,2 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

**XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlat-lar |
| **Jami eksport** | **362 006,5** | **90 516,8** | **271 489,7** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 12 392,9 | 8 980,2 | 3 412,7 | 3,4 | 9,9 | 1,3 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 26 235,0 | 24 529,8 | 1 705,2 | 7,2 | 27,1 | 0,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 2 366,9 | 321,2 | 2 045,7 | 0,7 | 0,4 | 0,8 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 248 544,9 | 17 468,9 | 231 076,0 | 68,7 | 19,3 | 85,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiya-langan sanoat tovarlari | 50 046,7 | 24 149,4 | 25 897,3 | 13,8 | 26,7 | 9,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 2 789,4 | 214,4 | 2 575,0 | 0,8 | 0,2 | 1,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 14 226,5 | 13 904,8 | 321,7 | 3,9 | 15,4 | 0,1 |
| Xizmatlar | 5 404,2 | 948,1 | 4 456,1 | 1,5 | 1,0 | 1,6 |

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2019- yilning mos davriga nisbatan sezilarli oʻzgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning mos davriga nisbatan, turli xil tayyor buyumlar, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlarning eksport tarkibida oʻsish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **121,4** | **147,5** | **114,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 49,6 | 50,7 | 47,1 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari | 155,5 | 176,4 | 57,6 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | 66,4 | 49,9 | 70,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 129,0 | 11,6 b. | 120,9 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 125,5 | 97,2 | 172,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 28,6 | 2,6 b. | 26,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 12,5 b. | 15,0 b. | 153,3 |
| Xizmatlar | 58,0 | 54,3 | 58,8 |

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ulush % da)**

2020- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, soʻnggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar ulushi 7,3 punktga oshib, 68,7 % ni, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari 4,6 punktga oshib, 13,8 % ni tashkil etdi.

| XSST tarkibi | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 21,5 | 8,4 | 3,4 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari | 5,3 | 5,6 | 7,2 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | 0,0 | 1,2 | 0,7 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 61,4 | 64,6 | 68,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 9,2 | 13,4 | 13,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,4 | 3,3 | 0,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,1 | 0,4 | 3,9 |
| Xizmatlar | 2,1 | 3,1 | 1,5 |

**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO‘YICHA EKSPORT HAJMI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Tuman va shahar nomi | Eksport hajmi | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **362 006,5** | **121,4** |
| Navoiy sh. | 272 088,0 | 129,7 |
| Zarafshon sh. | 2 613,6 | 2,1 b. |
| *tumanlar:* | | |
| Кarmana | 28 241,0 | 126,0 |
| Кonimex | 1 008,7 | 71,4 |
| Qiziltepa | 25 059,7 | 135,2 |
| Navbahor | 15 618,3 | 99,2 |
| Nurota | 1 974,1 | 61,6 |
| Tomdi | 538,8 | 159,7 |
| Uchquduq | 1 099,2 | 116,9 |
| Xatirchi | 8 211,7 | 76,2 |
| Bo‘linmaydigan hajm | 5 553,4 | - |

2020- yil yanvar-oktabr oylarida eksport 362,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 121,4 foiz kuzatildi.

| | Jami mln. AQSh dollari | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Eksport hajmi** | **362,0** | **121,4** | **100,0** |
| MDH davlatlari | 90,5 | 147,5 | 25,0 |
| Boshqa davlatlar | 271,5 | 114,7 | 75,0 |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**




MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu koʻrsatkich 25,0 va 75,0 foizni tashkil etdi.

**NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-oktabr, % da)**




2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 27,9 %), Fransiya (21,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,9 %), Qirgʻiz Respublikasi (10,0 %), Rossiya Federatsiyasi (7,9 %), Turkiya (7,0 %) va Turkmaniston (4,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,9 foizni tashkil etmoqda.

NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI (yanvar-oktabr)

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Fransiya bir pog‘onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘sishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 36 tani tashkil etdi.

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da | O‘rni |
|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | | |
| Kanada | 467,4 | 101 158,0 | 216,4 b. | 1 |
| Fransiya | 134 539,5 | 76 143,0 | 56,6 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 61 973,6 | 53 820,3 | 86,8 | 3 |
| Qirg'iz Respublikasi | 17 239,1 | 36 359,3 | 2,1 b. | 4 |
| Rossiya Federatsiyasi | 30 788,0 | 28 491,0 | 92,5 | 5 |
| Turkiya | 16 320,3 | 25 259,2 | 154,8 | 6 |
| Turkmaniston | 3 011,3 | 15 142,7 | 5,0 b. | 7 |
| Qozog'iston | 6 713,3 | 6 325,9 | 94,2 | 8 |
| Singapur | 614,1 | 4 807,0 | 7,8 b. | 9 |
| Litva | 3 723,6 | 3 295,0 | 88,5 | 10 |
| Ukraina | 1 533,5 | 1 937,8 | 126,4 | 11 |
| Afg'oniston | 1 399,0 | 1 300,0 | 92,9 | 12 |
| BAA | 548,4 | 1 251,7 | 2,3 b. | 13 |
| Ozarbayjon | 216,1 | 869,2 | 4,0 b. | 14 |
| Tojikiston | 1 170,1 | 852,3 | 72,8 | 15 |
| Polsha | 3,0 | 656,5 | 219,6 b. | 16 |
| Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya | 21,0 | 570,5 | 27,1 b. | 17 |
| Belarus Respublikasi | 392,9 | 423,6 | 107,8 | 18 |
| Pokiston | 892,5 | 401,4 | 45,0 | 19 |
| Iroq | 428,7 | 309,8 | 72,3 | 20 |

## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

| XSST tarkibi | Kanada | | Fransiya | | Xitoy Xalq Respublikasi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| **Jami eksport** | **467,4** | **101 158,0** | **134 539,5** | **76 143,0** | **61 973,6** | **53 820,3** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | | | 21,0 | | 1 396,2 | 833,8 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari | | | | | 1 536,1 | 1 070,8 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | | | | | 243,3 | 156,7 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | | 100 708,8 | 134 518,5 | 76 143,0 | 56 281,8 | 44 530,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 467,4 | 449,2 | | | 1 978,6 | 4 945,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | | | | | 500,9 | 2 282,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | | | | | 5,3 | 0,6 |
| Xizmatlar | | | | | 31,4 | 0,3 |

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**




Xizmatlar eksporti hajmi 5,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,5 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 58,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (74,2 %), safarlar (turizm xizmatlari) (15,0 %), moliyaviy xizmatlar (7,4 %), va boshqa xizmatlar (3,4 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 9 644,4 ming AQSh dollar qiymatli 10 717,9 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2019- yilning mos davriga nisbatan 40,0 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 2,7 foizni tashkil etmoqda. Shundan salmog‘i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 3 430,3 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 2 246,2 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 1 368,7 ming AQSh dollarini, Navbahor tumanida 1 326,0 ming AQSh dollarini va Zarafshon shahrida 537,9 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Qiziltepa | 3 430,3 | Navbahor | 1 326,0 | Uchquduq | 118,2 |
| Xatirchi | 2 246,2 | Zarafshon sh. | 537,9 | Nurota | 86,2 |
| Karmana | 1 368,7 | Navoiy sh. | 513,1 | Konimex | 17,7 |

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg‘iz Respublikasi (37,6 %), Rossiya Federatsiyasi (28,2 %), Qozog‘iston (10,0 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (8,6 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## MEVA - SABZAVOT MAHSULOT-LARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-oktabr)

| Davlatlar | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tonna | Ming AQSh dollari | Ulushi*, % da | Tonna | Ming AQSh dollari | Ulushi*, % da |
| Qirg'iz Respublikasi | 4 482,3 | 12 570,9 | 52,1 | 1 498,9 | 3 625,0 | 37,6 |
| Rossiya Federatsiyasi | 1 250,1 | 666,2 | 2,8 | 4 127,2 | 2 721,8 | 28,2 |
| Qozog'iston | 9 936,9 | 3 797,1 | 15,7 | 1 884,9 | 965,5 | 10,0 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1 584,1 | 1 344,3 | 5,6 | 819,2 | 833,8 | 8,6 |
| Pokiston | 367,1 | 709,9 | 2,9 | 218,0 | 386,6 | 4,0 |
| Belarus Respublikasi | 921,8 | 386,6 | 1,6 | 732,2 | 376,8 | 3,9 |
| Iroq | 690,5 | 404,7 | 1,7 | 280,1 | 212,6 | 2,2 |
| Afg'oniston | 485,0 | 707,7 | 2,9 | 546,7 | 138,9 | 1,4 |
| Gruziya | 279,3 | 169,7 | 0,7 | 107,0 | 117,5 | 1,2 |
| Hindiston | 239,7 | 176,9 | 0,7 | 66,0 | 63,3 | 0,7 |
| Turkmaniston | 143,9 | 50,2 | 0,2 | 61,7 | 62,3 | 0,6 |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 202,6 | 219,7 | 0,9 | 12,4 | 43,6 | 0,5 |
| Ukraina | 507,7 | 80,7 | 0,3 | 59,6 | 32,7 | 0,3 |
| Latviya | - | - | - | 173,4 | 23,3 | 0,3 |
| Estoniya | 517,2 | 134,2 | 0,6 | 108,0 | 20,2 | 0,2 |
| Moldova Respublikasi | 182,5 | 138,1 | 0,6 | 17,5 | 15,5 | 0,2 |
| Koreya Respublikasi | 14,0 | 57,5 | 0,2 | 5,0 | 5,0 | 0,1 |
| Boshqa davlatlar | 10 998,4 | 2 515,8 | 10,5 | - | - | - |

**-qiymat ifodasidan*

# NAVOIY VILOYATINING IMPORTI
## (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi 629,6 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 50,4 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (61,5 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (13,6 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (12,2 %) ga to‘g‘ri keldi.

**XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2020- yilning yanvar-oktabrida import qilingan tovarlar hajmi 600,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 28,7 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **629 644,2** | **171 684,5** | **457 959,7** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 8 314,2 | 4 961,5 | 3 352,7 | 1,3 | 2,9 | 0,7 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | 3 971,8 | 1 645,5 | 2 326,3 | 0,6 | 1,0 | 0,5 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 586,8 | 110,7 | 476,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar | 62,3 | 60,7 | 1,6 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 76 974,6 | 15 485,1 | 61 489,5 | 12,2 | 9,0 | 13,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangar sanoat tovarlari | 85 365,5 | 57 691,5 | 27 674,0 | 13,6 | 33,6 | 6,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 387 102,9 | 66 019,4 | 321 083,5 | 61,5 | 38,4 | 70,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 38 574,1 | 20 784,9 | 17 789,2 | 6,1 | 12,1 | 3,9 |
| Xizmatlar | 28 692,0 | 4 925,2 | 23 766,8 | 4,6 | 2,9 | 5,2 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O'SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-oktabr)**

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (61,5 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (13,6 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar (12,2 %), shuningdek MDH mamlakatlarida mashinalar va transport asbob-uskunalari (38,4 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (33,6 %) ga toʻgʻri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (70,1 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar (13,4 %) hissasiga toʻgʻri keladi.

| XSST tarkibi | 2019- yil yanvar-oktabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **50,4** | **64,4** | **46,6** |
| **shu jumladan:** | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 72,8 | 52,8 | 165,7 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari | 78,8 | 58,3 | 105,1 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | 8,9 | 2,2 | 29,2 |
| Hayvonlar va oʻsimliklar moylari, yogʻlar va mumlar | 111,8 | 124,6 | 22,6 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 92,7 | 115,8 | 88,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 47,6 | 109,5 | 21,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 44,7 | 39,7 | 45,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 47,9 | 163,0 | 26,3 |
| Xizmatlar | 174,2 | 110,7 | 197,6 |

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ulush % da)**

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan faqat xizmatlar (74,2 %), hayvonlar va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar (11,8 %) o'sgan, ammo barcha import qilinadigan tovarlar 2019- yilning mos davriga nisbatan kamaydi.

| XSST tarkibi | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 0,1 | 0,9 | 1,3 |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,2 | - |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,5 | 0,4 | 0,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,3 | 0,5 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 8,5 | 6,6 | 12,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 20,2 | 14,3 | 13,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 65,2 | 69,3 | 61,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 3,7 | 6,5 | 6,1 |
| Xizmatlar | 1,5 | 1,3 | 4,6 |

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar 2019- yilning mos davriga nisbatan importining ulushi 6,6 % dan 12,2 % gacha, xizmatlar importining ulushi esa 1,3 % dan 4,6 % gacha o‘sdi.

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko‘rsatkich 27,3 va 72,7 foizni tashkil etdi.

**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO‘YICHA IMPORT HAJMI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Tuman va shahar nomi | Import hajmi | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **629 644,2** | **50,4** |
| Navoiy sh. | 342 651,9 | 72,1 |
| Zarafshon sh. | 44 426,1 | 5,2 b. |
| *tumanlar:* | | |
| Karmana | 171 892,8 | 157,3 |
| Konimex | 3 191,2 | 2,4 b. |
| Qiziltepa | 11 966,2 | 71,4 |
| Navbahor | 11 747,1 | 175,2 |
| Nurota | 7 146,4 | 83,5 |
| Tomdi | 993,9 | 196,7 |
| Uchquduq | 1 755,3 | 95,4 |
| Xatirchi | 6 536,5 | 26,9 |
| Bo‘linmaydigan hajm | 27 336,8 | - |

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import 629,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 50,4 % ni tashkil etdi.

| | Jami mln. AQSh dollari | 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘zgarish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Import hajmi** | **629,6** | **50,4** | **100,0** |
| MDH davlatlari | 171,6 | 64,4 | 27,3 |
| Boshqa davlatlar | 458,0 | 46,6 | 72,7 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulush % da)




Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Germaniya, Qozog'iston, AQSh va Koreya Respublikasi) jami importning 77,3 % ini tashkil qiladi, bu 486,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020- yil yanvar-oktabr, % da)




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva va Germaniyadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-oktabr)

Hisobot davri yakunlariga koʻra, import boʻyicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 17,9 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (17,8 %) ortda qoldirgan holda, birinchi oʻrinni egalladi.

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da | Oʻrni |
|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | | |
| Rossiya Federatsiyasi | 125 459,6 | 112 455,5 | 89,6 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 187 732,6 | 111 952,3 | 59,6 | 2 |
| Litva | 7 807,5 | 75 426,1 | 9,7 b. | 3 |
| Germaniya | 169 185,3 | 48 230,2 | 28,5 | 4 |
| Qozog'iston | 53 871,8 | 46 660,8 | 86,6 | 5 |
| AQSh | 39 381,9 | 46 182,5 | 117,3 | 6 |
| Koreya Respublikasi | 91 428,7 | 45 459,3 | 49,7 | 7 |
| Turkiya | 75 924,6 | 30 051,5 | 39,6 | 8 |
| Yaponiya | 139 848,6 | 28 327,2 | 20,3 | 9 |
| Ukraina | 1 436,0 | 11 184,0 | 7,8 b. | 10 |
| Italiya | 88 111,2 | 10 728,8 | 12,2 | 11 |
| Chexiya Respublikasi | 20 915,2 | 8 719,4 | 41,7 | 12 |
| Estoniya | 7 395,9 | 6 991,3 | 94,5 | 13 |
| Vengriya | 241,0 | 4 257,0 | 17,7 b. | 14 |
| Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya | 6 389,0 | 4 039,6 | 63,2 | 15 |
| Fransiya | 1 559,2 | 3 776,6 | 2,4 b. | 16 |
| Indoneziya | 2 466,7 | 3 746,4 | 151,9 | 17 |
| Eron Islom Respublikasi | 1 875,2 | 3 684,3 | 196,8 | 18 |
| Hindiston | 30 884,2 | 3 524,1 | 11,4 | 19 |
| Polsha | 445,3 | 3 136,5 | 7,0 b. | 20 |

XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2020- yanvar-oktabr, ulushi, % da)

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni boʻyicha 60 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 28,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,6 % ini tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 174,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (26,9 %) va transport xizmatlari (22,8 %) dan iborat boʻldi.




Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam oʻrin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**
**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**
**savdo statistikasi boʻlimi**
**Tel (99879) 222-04-36**